



## GO‘ZAL NUTQ QALBGA GAVHARDUR

**R.Musaboyev**

*Yunus Rajabiy nomidagi*

*O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti o‘qituvchisi*

***San’atlar ichida eng ulug‘i -so‘z san’atidir.***

**Kaykovus.**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada muomala madaniyatidagi kamchiliklar va ularga to‘siq bo‘layotgan omillar, ularni bartaraf etish usullari tahlil qilingan. Unda adabiy nutqning sahna san’atidagi roli va tinglovchiga ta’siri masalalari atroflicha yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** jonli til, ta’sirchan nutq, sahna nutqi, adabiy nutq me’yorlari, nutqning jamiytdagi o‘rni, sahna nutqini rivojlantirish.

### BEAUTIFUL SPEECH IS A GEM TO THE HEART.

**Abstract.** This article analyzes the shortcomings of communication culture, the factors that hinder their identification, and methods for addressing them. It comprehensively examines the role of literary speech in the performing arts and its impact on the listener.

**Key words:** lively language, impressive speech, stage speech, norms of literary speech, the role of speech in society, development of stage speech.

### КРАСИВАЯ РЕЧЬ — ДРАГОЦЕННЫЙ ЭКЗЕМПЛЯР ДЛЯ СЕРДЦА.

**Аннотация.** В данной статье анализируются недостатки культуры коммуникации, факторы, препятствующие их выявлению, и методы их устранения. В ней всесторонне рассматривается роль литературной речи в исполнительском искусстве и её влияние на слушателя.

**Ключевые слова:** живой язык, впечатляющая речь, сценическая речь, нормы литературной речи, роль речи в обществе, развитие сценической речи.

Mustaqillik yillarida yurtimizda milliy madaniyat va san’at sohalarini rivojlantirish, ayniqsa an’anaviy xonandalik va maqom san’atini yuksaltirishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz rahbarligida “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim va tarbiyada milliy qadriyatlarimizni tiklash, ijodiy tafakkurga asoslangan ta’lim konsepsiyasini joriy etish, sahna san’ati yo‘nalishidagi kasb va mutaxassisliklar rivojini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida an’anaviy xonandalik, xususan maqom san’ati va sahna nutqi



fanlarining ilmiy-nazariy asoslarda o'qitilishi, ushbu sohalar bo'yicha ilg'or tajribalarni amaliyotga tadbiiq etish jarayoni yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

“Sahna nutqi” fanini chuqur o'rganish nafaqat xonandaning professional mahoratini oshiradi, balki uning sahnadagi ishonchliligini, tabiiyligini, asar bilan uyg'unligini ta'minlaydi. Sahna so'zining tovush, intonatsiya, nafas, urg'u, ritm, talaffuz va harakat bilan uyg'unligi xonandalik san'atining eng asosiy mezonlaridan biridir. Bu esa ijrochidan faqat iste'dod emas, balki puxta nazariy bilim, amaliy ko'nikma, doimiy izlanish, o'z ustida ishlash madaniyatini talab qiladi. Shu sababli til ba nutqning jamiyatda tutgan o'rnin anglash hamda o'z-o'ziga nutq madaniyatini tarbiyalash har bir insonning, xususan san'atkorning muqaddas burchidir.

Til jamiyatda nihoyatda yuksak mavqega ega, u o'zaro aloqa vositasidir. Jamiyat hayotini kishilarning jonli muloqotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Millatning qudrati uning tilida, millat kishilari tomonidan qay darajada e'tirof etilayotganida, siyosiy va adabiy doiralarda qanchalik ahamiyat kasb eta bilganida ko'rinadi. Tilning sofliigi aslida millatning g'ururi, ongi va madaniyatining qay darajada yuksak ekanini ko'rsatuvchi asosiy belgilardandir. Ijtimoiy tarmoqlardan yoshlarning to'mtoq, «ko'cha» nutqini, xonandalarning jargon va sheva so'zlariga to'la “qo'shiqlari”ni tinglashga to'g'ri kelib qoladi. “Ehhh... madaniyatimizning kelajagi qanday bo'larkin” deb xafa bo'lib ketasan kishi.

Boy tariximizda qadimdan nutq madaniyati masalalariga alohida e'tibor berilgan. Me'moriy yodgorliklardan til odobi sirlarini axtargan pedagog olimlarimizdan Saidaxbor Bulatov va O'ktamjon Mansurovlar “Milliy me'morchilikda amaliy san'at falsafasi” nomli durdona asarida Sherdor madrasasi peshtoqidagi bezak elementlaridan biri bo'lmish sher tili tasvirida so'zlovchilarni til odobiga rioya etishga undashning ramziy ma'nosi ifodalanganini ta'kidlaydilar. XI asrda yashab ijod etgan mashhur mutafakkir, tilshunos alloma Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida nutk madaniyati va nutk odobi masalalari keng yoritilgan. U “odam so'zning shirinligi bilan lazzatlansa, unga asir bo'lib ketadi” deya nutqning inson ma'naviy olamidagi o'rnini ta'kidlagan. Xorazmlik buyuk alloma Maxmud Zamaxshariy “Nozik iboralar” nomli asarida muomala madaniyati, nutqning qudratidan bahs yuritgan. Mashhur Abdurahmon Jomiy o'z adabiy merosida so'z va nutqning qudrati ulug'ligini ta'kidlab, insonga chiroyli libosdan ham ko'ra so'z ko'proq oroyish berishini, el-yurt ichida hurmat-e'tiborli qilishini uqtirgan:

Tildagi ketma-ket xatoga hayhot,  
Chiroyli kiyimlar berolmas najot.  
So'zni kiyimingdek bekamu ko'st qil,  
Yoki kiyimingni so'zingga rost qil.

Chiroyli, tekis va ravon so'zlash, notiqlik orqali tinglovchi qalbiga yo'l topish, har qanday muammoni shirin til bilan osoyishta hal eta bilish jamiyatda yuksak qadrlangan, zero, go'zal nutq va notiqlik ham o'ziga xos san'at sanalgan. Qadimda ushbu san'at bilan voizlar shug'ullanganlar.



IX asrgacha Sharqda voizlik (“va’z” so’zi arabcha “targ’ib kilish, pand-nasihat” degan ma’nolarni anglatadi, voiz – va’z aytuvchi demakdir) vazifasini xalifalar, shoxlar bajarganlar. Keyinchalik ular bu vazifani voizlarga yuklab, ularning ism-shariflari nomiga voiz so’zini qo’shib, ulug’laganlar.

Nutq madaniyati, notiqlik san’ati masalasi bilan so’z mulkingning sultoni Alisher Navoiy xam jiddiy shug’ullangan. Alisher Navoiy davrida o’zbek tili mavqei, notiqlik san’ati ancha yuksak darajaga ko’tarilgan. Alisher Navoiy «Maxbubul-qulub» asarining 24-bobi notiqlik san’atiga bag’ishlanib, unda o’nlab voizlarning nutq mahoratini tavsiflangan.

Ulug’ shoir qisqalik, ixchamlik, so’z birikma va gaplarning mazmunli, muxtasar bo’lishiga katta e’tibor qaratgan. U inson madaniy qiyofasini belgilovchi asosiy xususiyat tildan qay tarzda foydalanishi bilan belgilanishi, inson nutqi uning aqliy kamolotidan darak beruvchi eng asosiy xususiyati ekanini “Nazm-ul javohir” asarida quyidagicha ta’riflagan:

Odamki, demak bila kiromiyduru bas,  
So’z durru kishining intizomiduru bas,  
Sihhat onchaki, ahli aql komiduru bas,  
Aqliga dalil aning kalomiduru bas<sup>52</sup>.

Unsur Maoliy Kaykovus mashhur didaktik asari “Qobusnoma”da taxtining merosxo’ri bo’lmish farzandiga nasihat qilar ekan, notiqlik, gapga chechanlikni hunarlarning a’losi deya ta’kidlaydi: “Bilgilki, hamma hunardan so’z hunari yaxshi”<sup>53</sup>.

O’zbek madaniyati tarixida o’chmas iz qoldirgan mutafakkir, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning uqtirishcha, har bir insonning nutqidan uning kimligini, qanday inson ekanligini anglash mumkin<sup>54</sup>.

Yuqoridagilardan ma’lum bo’ladiki, Sharq mutafakkirlari, so’z va nutqning inson hayotidagi o’rni, vazni va qadr-qimmatiga katta ahamiyat berganlar. Ular har bir so’zning nutqda o’z o’rni va ahamiyati borligini, nutqni qudratli qiluvchi so’zdan kuchliroq va buyukroq narsa yo’qligini, tilga e’tibor – elga e’tibor ekanligini, so’z sehri ila odamzod mo’jizalar yarata olishini doimo ta’kidlab, isbotlab kelganlar. So’z orqali nutq va fikr oydinlashadi.

O’tmishda notiqlik san’ati va unga yaqin sohalar bilan shug’ullanuvchilarni “nadimlar, qissaguyalar, masalguyalar, badixago’ylar, qiroatxonlar, muammogo’ylar, voizlar, go’yandalar, maddohlar, qasidaxonlar” deb yuritilgan. Masalan, go’yandalar xalq marosimlarida qo’shiq kuylashgan, marhum yoki tantana egalariga izzat-hurmat bildirishgan. Tinglovchilarning hissiyotlariga so’z kuchi bilan ta’sir ko’rsatishgan. To’y, shodiyona va sayl-tomoshalarda qissago’ylar yakka yoki teatrlashtirilgan ansambl tarkbida qo’shiq kuylab, saroyanda (ashulachi) va navozanda (cholg’uchi) lar qo’shiq so’zlari va ohangi orqali xalq qalbiga yo’l topishgan. Kishilarni so’zning qudratini anglashga, undan

<sup>52</sup> Alisher Navoiyning «Maxbubul-qulub» asari grammatik xususiyatlari. Nomz. diss. -T.: 1959; \* Bertels E.E. Navoiy i Djami. -M.: Nauka, 1965 .

<sup>53</sup> Unsur Maoliy Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: "Istiqlol" -1994.

<sup>54</sup> Boburnoma / Vaqoe. Zahiriddin Muhammad Bobur. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2019.-432 b.





ta'sirlanishiga sababchi bo'lishgan. Ular o'z faoltyatlari bilan xonandalik san'atini ham yuksaltirishgan. Demak, sahna nutqi xonandalik san'atida ham mavjud bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda nutq boyligining go'zaligi va ravonligi, nutq faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlovchi birlamchi asos hisoblanadi. Nafaqat teatr yoki kino sanati, balki milliy musiqa san'ati vakillari hamda boshqa soha vakillari ham sahna nutqini yaxshi egallashi, nutq texnikasi va texnologiyasini yaxshi bilishi, sahna nutqi jozibadorligiga, ta'sirchanligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillarni o'zlashtirishi, talabalik davridanoq sahna nutqi ustida ishlashi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiyning «Maxbubul-qulub» asari grammatik xususiyatlari. Nomz. diss. - T.: 1959.
2. Unsur Maoliy Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: "Istiqlol" -1994.
3. Boburnoma / Vaqoe. Zahiriddin Muhammad Bobur. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2019.-432 b.
4. Tohir Malik. Tilingni avayla – omondir boshing / “Darakchi” gazetasi,
5. Нурмухамедова Ў. Саҳна нутқи. Қўғирчоқ театри актерлиги талабалари учун ўқув қўлланма). – Т.: офсет усулида чоп этилган, 2008. – 160 б.
6. Sayfiddinov A. Adabiy asar va ijrochilik mahorati – T.: “FAN” nashriyoti,1980-y.\_
7. Bulatov S., Mansurov O'. Milliy me'morchilikda amaliy san'at falsafasi. – Toshkent: Fan, 2005. –152 b.- 49-b.|
8. Karimov, M. (2010). Sahna nutqi asoslari. - Toshkent: San'at nashriyoti, 2000.